


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK QURILISH INSTITUTI



MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI

FANINING O'QUVDASTURI

Bilim sohasi: 700 000 – muhandislik ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lif sohasi 720 000 – ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Ta'lif yo'nalishi 60720600 – Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi

Fan/modul kodi ChGMG1106	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek tili	Haftadagi dars soatlari 6		
1.	Fanning nomi Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	90 (30+60)	90	180
2.	I. Fanning mazmuni			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'naliishi talabalarini o'ta sanoatlashgan hozirgi zamon ishlab chiqarishi muhitida keng miyosda qo'llaniluvchi chizmalarini qo'lda va kompyuterda hosil qilishning ilmiy asoslari, terminologiyasi, halqaro miyosda standartlashtirilgan ko'p sonli qoidalari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'naliishi talabalarini muhandislik ishi amaliyotida qo'llaniluvchi uch o'lchovli turli-tuman qiyofalarga ega yaxlit va birikma ob'ektlarni tasvirlarning chizmalar deb ataluvchi ikki o'lchovli turida aniq tasvirlashning geometrik va proektsion asoslari bilan yaqindan tanishtirish, ularda ana shunday chizmalarini yaratish va turli xil chizmalar bilan bema'lol ish yurita bilish kompetensiyalarini shakllantirish. Chizmalarini an'anaviy usul (chizma asboblari va qo'l) da yaratish bilan barobar ularni zamonaviy kompyuterlarda hosil eta bilishning ko'nikma va malakalarini hosil qilish.</p>			
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)			
	<p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Grafikaning geometrik bilimlar va chizish amali bilan bog'liq faoliyat ekanligi. Geometrik yasashlar grafikasi.</p> <p>Chizish qurollari (qog'oz, qalam, chizg'ich, go'niya, sirkul, transportir, o'chirgich), chiziq turlari, qog'oz formatlari, chizma yozuvlari, to'g'ri chiziq kesmasi va aylana yoyslarini qo'llab, turli xil geometrik yasashlar (tutashmalar). Romb elementlari xossalardan foydalanib, geometrik masalalar yechish. Chizmada ob'ekt o'lchamlarini qo'yish qoidalari.</p> <p>2-mavzu. Chizmada tasvirlanadigan ob'ektlar. Geometrik elementlar (nuqta, to'g'ri chiziq, tekiclik), ularning chizmalarida ramziy belgilanishi.</p>			

Elementar juftliklar. Elementlararo predikatlar (tugun, masofa, burchak) va ularning yozma ramziy ifodalanishi. Nuqtaviy va to'g'ri chiziqli fazoviy ko'pliklar (dastalar, bog'lamlar). Tekis yoqlik ko'pliklar (dastalar va bog'lamlar)

Elementar ko'pliklar. Nuqtaviy tekis ko'pliklar: aylana, parabola, ellips chizmalar. Spirallar, evolventalar. siklik tekis egri chiziqlarning chizmalar. To'g'ri chiziqli tekis ko'pliklar: to'g'ri chiziqlar dastasi, parallel to'g'ri chiziqlar dastasining texnik rasmlari.

Sfera, paraboloidlar, ellipsoidlar, giperboloidlar, elliptik konuslarning eskiz va texnik rasmlari. Konuslar, silindrler. Piramidalr, prizmalar. Ularning elementlari bilan birgalikdagi texnik rasmlari.

3-mavzu. Fazoviy ob'ektlarni tekislikda tasvirlash. Proeksiyalash amali. Markaziy va parallel proeksiyalash. To'g'ri burchakli proeksiyalash apparati.

To'g'ri burchakli proektsiyalash apparatiga tegishli invariant xossalari.

Uch o'lchovli to'g'ri burchakli koordinatalar va proektsiyalar apparati. Shu apparat elementlarining nomlanishi. Gorizontal, frontal va profil proektsiyalar. Asosiy ko'rinishlar va ularning nomlanishi. Proeksiyalash yo'naliislari va koordinata o'qlari. Monj epyuri. Monj epyurida nuqta, to'g'ri chiziq kesmasi, uchburchak va tetraedrning tasvirlanishi.

4-mavzu. Maxsus vaziyatdagi to'g'ri chiziqlar va tekisliklar. Ularning nomlanishi va chizmada tasvirlanishi.

Elementlari maxsus vaziyatda joylashgan juftliklarning chizmalarida predikatlar (ustma-ustlik, yotishlik, o'tishlik, kesishishilik, parallelilik, perpendikulyarlik, burchak va masofa) ning tasvirlanishi.

5-mavzu. To'g'ri chiziq va tekislik ixtiyoriy vaziyatda joylashgan holda elementar juftliklararo predikatni aniqlash usullari.

Proektsiya tekisliklarini o'zgartirish usuli, aylantirish usuli, tekis-parallel ko'chirish usuli. Shu usullarni qo'llab, elementar juftliklardagi predikatni aniqlashga oid grafik masalalar yechish. Ko'pyoqliklarning chizmalarida ularning maxsus va ixtiyoriy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi chiziqlarini aniqlash.

6-mavzu. Yordamchi qo'shimcha proektsiyalash usuli.

Prizma, piramida, antiprizma, prizmatoid kabi ko'pyoqliklarning maxsus va ixtiyoriy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishish chiziqlarini tasvirlash masalalari. Ixtiyoriy vaziyatdagi tekislikning ko'pyoqlikda hosil qilgan kesimi yuzasini haqiqiy kattalikda tasvirlash. Ko'pyoqlikning yoyilmasini bajarish.

7-mavzu. Aylanish sirtlarini tekisliklar bilan kesish. Konus kesimlari (ellips, parabola, giperbola). Halqa sirtini har xil vaziyatdagi tekisliklar bilan kesish. Ikki sirtning o'zaro kesishish chiziqlarini qurish. Yordamchi kesuvchi tekisliklar usuli. Yordamchi kesuvchi sferalar usuli.

8-mavzu. O'zDSt 2.305-97 bo'yicha narsaning asosiy ko'rinishlari, ular-ning nomlanishi va belgilanishi.

Asosiy ko'rinishlarning chizmada o'zaro joylashishi. Ko'rinishlarni joylashirishning Yevropacha va Amerikacha usullari. Ikkita ko'rinishi asosida detalning uchinchi va fazoviy ko'rinishlarini tasvirlash.

9-mavzu. Aksonometrik tasvir. Aksonometriya nazariyasi. To'g'ri burchakli va qiyshiq burchakli aksonometriyalar.

Aksonometriyaning asosiy teoremlari. Izlar uchburchagi. O'qlar bo'yicha o'zgarish koefitsientlari. Aksonometriya turlari: trimetriya, dimetriya va izometriya. Keltirilgan va standart aksonometriyalar.

10-mavzu. Ko'rinishlarda bajariladigan muhim grafik amallar. Ko'rinishlar soniga teng taqsimlab, O'zDSt 2.307: 2003 talablari bo'yicha detalning barcha o'lchamini qo'yib chiqish. Qirqim va kesimlarning turlari. Ko'rinishlarda qirqim va kesim tasvirlarini joylashtirish.

11-mavzu. Nostandard va standart detallar. Ajralmas va ajraluvchi birikmalar. Ajralmas birikmalardagi standart detallarni ularning yig'ma chizmalarida tasvirlash.

Chaqma mixli birikma va payvand chokli birikmarning chizmalari. Ajraluvchi birikmalar va ularning detallari. Rezba. Tashqi va ichki rezba. Rezbali detallar. Har xil kallakli vintlar, rezbali uyacha, har xil shaklga ega gaykalar, har xil kallakli boltlar. Chizmada rezbani tasvirlash masalasi.

12-mavzu. Vint chizig'i. Konus va silindrning vint chiziqlari. Arximed spirali. Vint sirtlari.

Arximed vinti. Gelikoidlar. To'g'ri yopiq va ochiq gelikoidlarning chizmalar. Qiyshiq yopiq va ochiq gelikoidlarning chizmalar. Konus va silindrga o'rab hosil qilingan prujinalar.

13-mavzu. Rezbaning turlari. Rezba turining chizmada tasvirlanishi va belgilanishi.

Metrik rezba. Trapetsiodal rezba. Tirkak rezba. Trubali birikmadagi silindrik rezba. Trubali birikmadagi standart konus rezba. Shpilkali va boltli birikmarning chizmalar. O'lchamlarini hisoblab chiqish asosida shpilkali va

boltli birikmaling detallaridan har birining eskizini bajarish.

14-mavzu. Yig'ma birlik. Yig'ma birlik (yig'ish) chizmasi.

Yig'ma chizmasi haqida ma'lumot. Yig'ish chizmasida qirqim, kesim bajarish, kesim yuzalarini shirixlash, detallarni raqamlash va gabarit hamda montaj o'lchamlarini qo'yish. Yig'ma birlik spetsifikatsiyasini tuzish. Spetsifikatsiya jadvalini chizish va to'ldirish.

15-mavzu. Yig'ish chizmasi tarkibidagi detal chizmasi asosida chizish qurollarini ishlatmay ko'z chamasida detal eskizini bajarish.

Bitta nostandard detalning uch asosiy ko'rinishini hosil qilish. Ko'rinishlarda kerakli o'lchamlarni, qirqim va kesimlarni tasvirlash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida muhandislik va kompyuter grafikasi bo'yicha o'rgangan nazariy bilimlarini har xil ob'ektlar chizmasini qo'lda, qog'ozda va kompyuterda, displayda hosil qilish jarayoniga tatabiq etadilar va ana shunday chizmalarini hosil qilish bilan shug'ullanadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni quyidagi mavzularda o'tkazish tavsiya etiladi.

1. Chiziq turlari va chizmalar bajarishda ularni qo'llash. Shriftlar. Shriftning turlari, o'lchami, harflar, raqamlar, belgilar. Shrift bilan yozishda asoslaniladigan o'lchamlar.

2. Chiziqlarni va shrift belgilarini ularning turi, o'lchami va rangi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlari bo'yicha kompyuter ekranida tasvirlash. 1-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

3. Sirkul egri chiziqlari. Aylana va aylana yoylari, urinmalar. Tutashmalar.

4. Sirkul egri chiziqlari. O'ramlar. Ovallar. Shularning chizmalarini ustida grafik mashqlar. 2-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

5. Tekis egri chiziqlar (ellips, parabola, giperbola, sinusoida, Arximed spirali, aylana evolventasi, sikloida va shu kabilar) ning chizmalarini bajarish ustida grafik mashqlar. 3-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

6. Chizmada yoq va qirralari maxsus vaziyatda joylashgan parallelepiped, muntazam to'g'ri prizma, muntazam to'g'ri piramida kabi ko'pyoqliklarni tasvirlash bo'yicha grafik mashqlar.

7. Chizmada oktaedr, dodekaedr, ikosaedr, kabi ko'pyoqliklarni tasvirlash bo'yicha grafik mashqlar. 4-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

8. Chizmada antiprizma, prizmatoid kabi ko'pyoqliklarni tasvirlash bo'yicha grafik mashqlar

9. Proektsion chizmada ixtiyoriy vaziyatdagi tekislik ishtirokida ($A \subset \alpha$),

$(a \subset \alpha)$, $(a \parallel \alpha)$, $(\alpha \parallel \beta)$ va $(a \perp b)$ kabi elementar juftliklarni tasvirlashga oid grafik mashqlar bajarish.

10. Ixtiyoriy vaziyatdagi tekislikning maxsus chiziqlari. Proektsion chizmada ixtiyoriy vaziyatdagi tekislik ishtirokida $(a \perp \alpha)$, $(\alpha \perp b)$ va $(\alpha \perp \beta)$ kabi elementar juftliklarni tasvirlashga oid grafik mashqlar bajarish. 5-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

11. Proektsion chizmada ixtiyoriy vaziyatdagi tekislik ishtirokida $(a \perp \alpha)$, $(\alpha \perp b)$ va $(\alpha \perp \beta)$ kabi elementar juftliklarni tasvirlashga oid grafik mashqlar bajarish.

12. Epyurni qayta tuzish usullarini qo'llab elementlar aro masofa va burchaklarning haqiqiy kattaligini aniqlashga oid grafik mashqlar. 6-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

13. Epyurni qayta tuzish usullarini qo'llab geometrik sirtlarning ixtiyoriy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishish chiziqlarini aniqlash. 7-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

14. Ikki sirtning o'zaro kesishish chiziqlarini yordamchi kesuvchi tekisliklar usulida aniqlash. 8-grafik topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar.

15. Ikkita tors sirtning o'zaro kesishish chiziqlarini aniqlashning boshqa har xil usullari.

16. Ikki sirtning o'zaro kesishish chiziqlarini yordamchi kesuvchi sferalar usulida aniqlash. 9-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

17. O'zDSt 2.305-97 bo'yicha narsaning asosiy ko'rinishlari. AutoCAD grafik tahrir dasturidagi View (Ko'rinish) panelidagi buyruqlar. Ikkita ko'rinishda detallning uchinchi va fazoviy ko'rinishlarini tasvirlash. 10-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

18. Aksonometriyalar. Dimetriyalar. Izometriyalar.

19. Chizmada "keltirilgan" izometriya va dimetriya o'qlarini tasvirlash. Koordinata tekisliklariiga parallel vaziyatda joylashgan tekis oddiy shakllar va aylanalarining ellipslar bo'lib ko'rinvuvchi izometriya va dimetriyalarini tasvirlash.

20. Ko'rinishlar soniga teng taqsimlab, O'zDSt 2.307: 2003 ga binoan detalning barcha o'lchamini qo'yish. Qirqim va kesimlar. Ko'rinishlarda qirqim va kesim tasvirlarini joylashtirish. 11-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

21. Chizmada ajralmas birikmalar tarkibidagi standart detallarni tasvirlash. Chaqma mixli va payvand chokli birikmalarning chizmalari. 12- va 13-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

22. Rezbali detallarning chizmalari. Ichki rezba, rezbali uya, gayka, uning turlari va chizmasi. Tashqi rezba.

23. Vintlar va boltlarning kallaklariga ko'ra turlari bilan ularning chiz-

malarini chizib ko'rish asosida tanishish.

24. Konus sirti vint chizig'i. Arximed spirali. Gelisa. AutoCAD grafik das-turida to'g'ri va qiyishi, ochiq va yopiq gelikoidlarning chizmalari ustida ishlash. Konus va silindrga o'rab hosil qilingan prujinalarning chizmalari.

25. Rezba turlari va ularning chizmalari. Trapetsiodal rezba. Tirkak rezba. Trubali birikmadagi silindrik rezba. Trubali birikmadagi standart konus rezba. 14- va 15-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

26. Shpilkali birikma chizmasi. O'lchamlarini hisoblab chiqish asosida shpilkali va boltli birikma detallarining eskitilarini bajarish.

27. Boltli birikma chizmasi. O'lchamlarini hisoblab chiqish asosida boltli birikma detallarining eskitilarini bajarish

28. Yig'ma birlik haqida tushuncha. Yig'ma birlik (yig'ish) chizmasi. Yig'ish chizmasida qirqim, kesim bajarish, kesim yuzalarini shtrixlash, detallarni raqamlash va gabarit hamda montaj o'lchamlarini qo'yish. 16-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

29. Yig'ma birlik spetsifikatsiyasini tuzish. Spetsifikatsiya jadvalini chizish va to'ldirish. 17-grafik topshiriqni bajarish tartibi.

30. Yig'ish chizmasini detallashtirish. Yig'ish chizmasidagi nostandard detallarning qiyofasi va o'lchamlarini aniqlab, chizish qurollarini ishlatmasdan ko'z chamasida ularning ko'p ko'rinishli eskitilarini bajarish. Ko'rinishlarda zarur o'lchamlarni, qirqim va kesimlarni tasvirlash. 18-grafik topshiriqni bajarishga oid amaliy ko'rsatmalar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga 2 nafar professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil grafik ishlari – MGI (90 soat)

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

1- semestr

- Nuqtaning 5-8 oktantlardagi proektsiyalarini yasash;
- Ixtiyoriy vaziyatdagi tekislikning izlarini yasash;
- Nuqtadan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan qisqa masofani aniqlash;
- Ikki kesishuvchi tekisliklar orasidagi burchakning haqiqiy kattaligini almashtirish usulida aniqlash;
- Aylantirish usuli bilan tekislikning haqiqiy ko'rinishini aniqlash;
- Ko'pyoqlik va egri sirtlarning yoyilmasini yasash;
- Piramida (konus, sfera) ning proektsiyalovchi tekisliklar bilan kesishish chizig'ining proektsiyalari va uning aksonometriyasini yasash;

	<p>8. Buyumning ikki ko'rinishi bo'yicha uch o'lchamli fazoviy modelini yaratish.</p> <p>9. Neft va nefi-gazni qayta ishlash mahshina va mehanizmlarini AutoCAD grafik dastirida loyihalash.</p>
	<p style="text-align: center;">MUSTAQIL TA'LIM</p> <p>1-mavzu. Oktantlar. Nuqtaning turli oktantlarda bo'lishi.</p> <p>2-mavzu. To'g'ri chiziqning nuqtalarining turli oktantlarda ko'rinishi.</p> <p>3-mavzu. Proktsiyalovchi to'g'ri chiziqlar.</p> <p>4-mavzu. Tekislikning o'zaro vaziyatlari</p> <p>5-mavzu. Izlari bilan berilgan tekislikka tegishli nuqta va to'g'ri chiziq yasash.</p> <p>6-mavzu. Izlari bilan berilgan tekislikni to'g'ri chiziq bilan kesishuvi.</p> <p>7-mavzu. Tekislikka perpendikulyar to'g'ri chiziq o'tkazish.</p> <p>8-mavzu. Og'ma prizma va piramida yoyilmalarini yasash.</p> <p>9-mavzu. Siklik sirtlar.</p> <p>10-mavzu. Yoyilmaydigan sirtlarning taxmini yoyilmasini yasash.</p> <p>11-mavzu. Aksonometriyada sirtlarning kesishuvini yasash.</p> <p>12-mavzu. Sirtlarni o'zaro kesishuvini ekstsentrif sharlar usulida aniqlash.</p> <p>13-mavzu. Geometrik yasashlar. Tutashmalar.</p> <p>14-mavzu. Geometrik yasashlar. Urinmalar o'tkazish.</p> <p>15-mavzu. Ko'rinishlar. Qo'shimcha va mahalliy ko'rinishlar</p> <p>16-mavzu. Murakkab qirqimlar.</p> <p>17-mavzu. Mashinasozlik chizmачhiligidagi shartlilik va soddalashtirishlar.</p> <p>18-mavzu. Yig'ish chizmalari</p> <p>19-mavzu. Spetsifikatsiya tuzish</p> <p>20-mavzu. Kompas va INVENTOR grafik dasturlari.</p> <p>21-mavzu. "Svoystva" va "CHertyoj" uskunalar paneli</p> <p>22-mavzu. Ajralmaydigan birikmalar (payvand, parchin mixli)</p> <p>23-mavzu. Neft va nefi-gazni qayta ishlash sohasidagi mashina va mehaizmlarning yig'ma birliklari.</p> <p>Mustaqil tarzda bajarilgan grafik ishlari belgilangan muddatlarda birma-bir o'qituvchiga ko'rsatilib, baholatkizib boriladi. Semestr oxirida barcha varoqlar bitta qilib tikilib, albom ko'rinishida kafedraga topshiriladi.</p> <p>A4 formatdagi har bir grafik ishni bajarish. Talabaning xohishi yoki o'qituvchining tavsiyasi bilan maqsadga muvofiq hollar-da A4 formatda bajarishga mo'ljallangan tegishli 2 ta ish bitta A3 formatda baja-rilishi mumkin.</p>
3	V. Ta'lism natijalari/kasbiy kompetentsiyalar

	<p>Talaba quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bilimlar – muhandislik va kompyuter grafikasi fanining tarixiy-ijtimoiy va etnopsixologik mohiyatidan, uning ilm-fan va ishlab chiqarish tizimlaridagi o'rni hamda ular bilan tutgan ikki yoqlama aloqalaridan, fanning talaba o'qiyotgan ta'lim yo'nalishi mutaxassislari va yuqori kurs talabalari faoliyatidagi ahamiyatidan, muhandislik va kompyuter grafikasining jahon va davlat miqyosidagi tarixiy taraqqiyotiga oid eng ibratli ilmiy-ijodiy mahsulotlarning namunalari bilan yaqin-dan tanish bo'lish; muhandislik va kompyuter grafikasi fanining ilmiy atama, tushuncha va ramziy belgilarni u bilan bevosita aloqadagi fan va ishlab chiqarish sohalarining xuddi shunday ma'nodagi ilmiy atama, tushuncha va ramziy belgilardan farq qilmaydigan variantlarda qo'llay bilish, fan masalalarini yechishga kirishishdan oldin, masala yechimini topishning eng maqbul algoritmlarini tuzib ola bilish; muhandislik geometriyasi va grafikasiga oid masalalarni kompyuterda hal etish asoslari bilan bevosita tanish bo'lish; - ko'nikmalar va malakalar – hozirgi zamон ishlab chiqarishi jaryonida keng qo'llaniluvchi chizmalarning kamida 20 – 25 xiliga chizish qurollari va foydalaniб konstruktorklik hujjati maqo-mida rasmiy grafik tus berish; - ijodiy-creativ yondoshuv alomatları – fanning turli xil masalalarini hal qilishda an'anaviy bo'lib qolgan yondoshuvlardan ustunroq turuvchi yondoshuvlar yaratib, ularni amaliyotga qo'llab, ijobjiy natija namoyish etish.
4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:
	<ul style="list-style-type: none"> - tadqiqiy (kritik) fikrlashga chorlovchi modellashtirilgan o'quv marruzalari texnologiyasi; - o'qitishning muammoli-evristik usuli; - talabalarning guruhlarga uyushib ishlashi; - yakka tartibda ishlash (individual loyihalari); - chizish qurollari vositasida amaliy-grafik ishlari bajarish; - kompyuterda amaliy-grafik ishlari bajarish; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalari ishlash.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar:
	<p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshirqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	Asosiy adabiyotlar
	<p>1. Sh.Murodov, L.Xakimov, A.Xolmurzayev, M.Jumayev, A.To'xtayev. Chizma geometriya, Iqtisod-moliya, 2006.</p>

2. J.Yodgorov. Chizma geometriya (darslik).T.Turon-lqbol, 2007 y.
3. Abduraxmayev Sh. Chizma geometriya (darslik). Aloqachi, 2005
4. Xamrakulov A.K. Chizma geometriya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Lesson press", 2022,148 bet
5. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi (Oquv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 168 b.
6. George Young. Descriptive geometry. The Macmillan Company, New York. 2013.
7. Engineering Drawing by M.B.Shah, B.C.Rana. D.Kindersley, Delhi,2009.
8. E. G. Pare, R. O. Loving, I. L. Hill, R.C.Pare. Descriptive geometry. Prentice Hall Upper Saddle River, New Jersey, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Жарков Н.В., Финков М.В., Прокди Р.Г. AutoCAD 2015. – Спб, Наука и Техника, 2015. – 624 с.
2. Abdullaev U. Chizma geometriya va chizmachilik asoslari. Darslik. – Toshkent; "O'zbekiston", 1999 y.
3. Oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida NIZOM (BM-824, 31.12.2020).

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti
4. <http://www.mjko.uz>
5. <http://ziyonet.uz>

7 Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va ilmiy-uslubiy kengashning " " 2024 y.dagi ___ -sonli majlis bayoni bilan ro'yxatga olingan.

8 Fan/modul uchun mas'ullar:
Sh. Abdurahmonov – "Muhandislik va komp'yuter grafikasi" kafedrasi dotsenti, ped.f.n.
G'. Mahkamov – "Muhandislik va komp'yuter grafikasi" kafedrasi muduri,

	tex.f. PhD.
9	Taqrizchilar: A.B. Tadjibayev – NamDU "TS va MG" kafedrasi dotsenti, ped.f.b. PhD. X. Ziyabayev – "MASHXIM" MChJ direktori.